


МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НОВОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ



Последние
взгляды

Последние
данные

Последние
исследование

И НОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



Международный современный научно-практический журнал

Новости образования: Исследование в XXI веке

№ 14 (100)
Октября 2023 г.

Часть 1

Издаётся с августа 2022 года

Москва 2023

Bakhodir Rakhimov	
РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ОЖИРЕНИЯ СРЕДИ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ: НАРУШЕНИЯ ОБМЕНА ВЕЩЕСТВ, МЕРЫ ВМЕШАТЕЛЬСТВА И ЗДОРОВЫЕ РИСКИ Рахимов Баходир Бахтиярович	374
XOLID HUSAYNING "TOG'LAR HAM SADO BERDI" ROMANIDAGI SYUJET VA UNING ELEMENTLARI Qoraboyeva Muxlisa Po'lat qizi Go'zal Ximmatova Amirqulovna	379
CHIQARISH JARAYONI VA EKSPLUATATSİYADA DVIGATELLAR ZAHARLILIGINI KAMAYTIRISH METODLARI G.A.Djumayeva	384
НЕКОТОРЫЕ АГРОХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ Жанибек кызы Диана Мирзамбетов А.Б Жоллыбеков Б.Б	391
"LEKSEMANING INTEGRAL VA DIFFERENTIAL SEMALAR Xaydarova Maftunaxon G`ayratjon qizi	394
ФАОЛИЯТ ЖАРАЁНИДА ШАХСДА МАСЪУЛИЯТ ҲИССИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ Н.Райимов	397
OLIY TA'LIM TIZIMINING DARS MASHG'ULOTLARIDA TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH Qaxarova Muxabbat	404
OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM METODLARINING QO'LLANILISHI Fayzullayev Sarvar	408
OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI DARS MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM METODLARINING QO'LLANILISHI Saydullayeva Muqaddam Akbarovna	413
АРХИТЕКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И СИМВОЛИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ДВОРЦА ЭМИРА БУХАРСКОГО: ИССЛЕДОВАНИЕ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ Хайтов Суннатжон Истамович	419
ABDULLA QODIRIY GAVHAR XAZINASI Rizayeva Asila Akmal qizi , Normatova Nasiba Rafailovna	426

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM METODLARINING QO'LLANILISHI

*Toshkent tibbiyot akademiyasi
Pedagogika, psixologiya va
tillar kafedrasi o'qituvchisi
Fayzullayev Sarvar
Sarvar.bek1993@mail.ru*

Annotatsiya: Oliy ta'lism tizimida talabalarni o'qitishda innovatsion ta'lism metodlaridan foydalanish talabalarda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, shuningdek ta'lism-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tadbiq eta olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Key words: metodlar, innovatsiya, ta'lism tizimi, jarayon, OTM, ta'lism texnologiyalarita'lism tarbiya.

Talabalarini o'qitishda innovatsion ta'lism metodlaridan foydalanish talabalarda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, shuningdek ta'lism-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tadbiq eta olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

“Zakovatli zukko”

Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga ega ekanliklari muhim ahamiyatiga ega. “Zakovatli zukko” metodi talabalarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z hoxishlariga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan talabalar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatda to'g'ri va aniq javob qaytara olishi kerak. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchilarining tafakkur tezligi aniqlanadi. Ballarning belgilanishi talabalarning shaxsiy imkoniyatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. “Zakovatli zukko” metodi talabalar bilan yakka tartibda guruqli va ommaviy shakllardagi dars mashg'ulotlarida birdek qo'llanishi mumkin.

Pedagogik texnologiya doirasida yangi o'quv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, ijodiy va evristik tavsifdagi darajalari belgilanadi:

1) Boshlang'ich tavsifdagigi daraja - talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritmik va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajarish ko'nikmasini ifodalaydi. O'quv materialini o'zlashtirishning ushbu darajasida o'qituvchining faolligi, mahorati ko'proq ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quv materialini qiziqarli, izchil

bayon etishi, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi, ta'lim jarayonining bosqichlarini to'g'ri belgilay olish talabalarning faoliyatini doimiy ravishda yo'naltirib boradi.

2) Algoritmik tavsifdagi daraja. U talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbiq eta olish mahorati, shuningdek, bir turdag'i masalalarni yechish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini tashkil etish malakasini ifodalaydi. Ushbu darajada o'quv materialining tizimliligi, uning mazmunini spiralsimon tamoyil asosida oddiydan murakkabga (osondan qiyinga) tomon murakkablashib mavzu va fanlararo aloqalarning ta'minlanishi, takrorlashlar hamda ko'rgazmalilik alohida ahamiyatga ega.

3) Ijodiy tavsifdagi daraja. Ushbu daraja o'quv materiali, shuningdek, ilgari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni turli holatlarda tadbiq eta olish, mahoratini ifodalaydi. Bunda o'quv materiallarini o'zlashtirishda izlanishga undash, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib borishga e'tibor berish va bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish muhim o'rinni tutadi.

4) Evristik tavsifdagi daraja. U taqdim etilgan o'quv masalalarining yechimlarini izlash hamda ularni yechish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan tavsiflanadi. Ushbu darajada talabalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilib borishga yo'naltirish hamda iste'dodni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida fikr mulohazalardan kelib chiqib, o'quv materiallarini didaktik loyihalashga nisbatan pedagogik texnologiyalar asosida metodik yondashuv quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: -o'quv materiallari pedagogik texnologiya asosida ta'lim-tarbiya jarayonini izchil tashkil etish uchun loyihalanadi va belgilangan o'quv faoliyatini amalga oshirish uchun qo'llaniladi;

-dars mashg'uloti pedagogik texnologiya talablariga muvofiq o'quv materiallarini o'zlashtirishning aniq maqsadini belgilaydi;

-darslikdagi materiallar mazmuniga pedagogik-didaktik ishlov berish jarayoni amalga oshiriladi;

-o'quv materialining metodik vazifasi belgilanadi;

-o'quv materiallarini taqdim etishning shakl, usul va vositalari aniqlanadi;

-o'quv materiallarining mazmunini o'zlashtirish darajasi va kafolatlangan yakuniy natija ishlab chiqiladi.

Demak, o'quv materiallarini loyihalashni didaktik va metodik jihatdan takomillashtirish, ta'lim jarayoniga tadbiq etish uchun o'qituvchi tomonidan unga ikkilamchi ishlov berish amalga oshiriladi, ya'ni, o'quv jarayoni loyihalanadi. O'quv materiallarini loyihalashda talabalar faolligini oshirishga alohida e'tibor berish zarur. Bu vazifani ayni vaqtida ta'lim amaliyotida keng qo'llanayotgan interfaol metodlar yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiqliр. O'qituvchi va talabalar hamkorlikdagi faoliyatları (barcha didaktik omillar ta'sirida) faqatgina qat'iy va anglangan vaqt oralig'idagina ta'minlanadi. Ta'lim vositalari sifatida o'quv matnlari asosiy o'rinni egallaydi. O'quv matnlari ayni vaqtida ta'limning yangi vositalarida (elektron darsliklar, videofilmlar, audio

darslar, audio va videokassetalar, videodisk va boshqa axborot texnologiyalari) ifodalamoqda. Dars mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ona tili ta'limida, uning ommalashuvida o'zining samarasini berishi shubhasizdir. Masalan, dars jarayonida qo'llanadigan metodlar quyidagilar:

Videofilm – ta'lim o'quv kursining biror bo'limi yoki mavzusini oynaijahon orqali ko'rsatishga moslashtirilgan videotasvir asosida yaratilgan metodik vosita hisoblanadi.

Audio va videokassetalar, videodisklarda o'quv materiallari joylashtirilib, talabalarning alohida yoki jamoaviy qo'llashlari uchun o'quv xonalariga qo'yiladi. Jamoaviy foydalanilgan holda, talabalar orasida muloqot va muhokama etish imkoniyati ham mavjud.

Darsliklar o'quv materiallarining mazmuni va metodik tuzilmasi qanchalik mukammal, to'g'ri, ilmiy asoslangan (yangi pedagogik texnologiyaga riosa qilingan) va amaliyatda tekshirib ko'rilib bo'lsa, o'qituvchining kafolat bilan yuqori samarali dars mashg'ulotini olib borishi shunchalik aniq bo'ladi. Mazkur o'rinda o'qituvchining filologik kasbiy mahorati, u tomonidan dars mashg'uloti loyihasi hamda o'quv materiallarini tarkiblashtirish shakl, metod va vositalarining to'g'ri tanlay olishi ham muhim o'rinn tutadi. O'quv faoliyatini boshqarish, jarayonida talabalarning o'quv materiallarini DTS talablari darajasida o'zlashtirishlari, shuningdek, ularning bilish tafakkurini kengayishida talabaning kasbiy tayyorgarligi, ijodiy izlanishi, o'quv jarayonini loyihalash va uning bosqichlarini to'g'ri belgilay olishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Dars mashg'uloti jarayonida talabalar diqqatini yo'naltirishga imkon beradigan muammoli vaziyatlarning yaratilishi, muammoning qo'yilishi, avval o'rganilgan materialarni eslash, yangi material mazmunida ilgari surilayotgan asosiy g'oyalarni mustaqil ravishda ajratish, ziddiyatlarni oqilona hal etish va ularning ijodiy izlanishga undash mavjud imkoniyatlarning kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil faoliyatni tashkil etish va talabalar harakatini boshqarish o'qituvchining o'quv materiali mohiyatini mantiqiy tahlil qilishdan boshlanadi. Shu tarzda o'qituvchi ikki soatlik dars mashg'uloti loyihasini ishlab chiqadi. Dars mashg'uloti loyihasini ishlab chiqishda uning elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ketma-ketlik, uzviylik, dars mashg'ulotining aniq maqsadi, o'quv materialining mazmuni, talabalarning individual-psixologik va fiziologik xususiyatlari hamda OTM sharoiti hisobga olinadi.

O'rganiladigan tabiiy hodisalar, filologik nazariy-qonun va ta'limiy jarayonlar mohiyatini talabalarga tushuntirishda fanlararo uzviylik va uzlusizlikni integratsion ta'minlash o'quv materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishga yordam beradi.

Demak:

1. Ona tilinini o'qitishda o'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik usullaridan foydalanib o'qitishning talabalar uchun mashq va

topshiriqlar qo'llashni, integrativ mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu mashqlar talabalar tomonidan dars mashg'uloti davomida ona tilidagi ko'nikmalar tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish turlarini o'quv materialini o'zlashtirishda nutq faoliyatini turlarining barchasidan foydalanishga yo'naltirilishi ko'zda tutiladi.

2. Ona tilini o'qitishda qo'llanilib kelingan an'anaviy yondashuv talabalarning nutq faoliyati turlarining to'rtala ko'nikma turini birdek rivojlantirish zaruratidan kelib chiqib OTM o'quv dasturlari qayta takomillashtirilishi zarur.

3. 1-2 kurs talabalarida ona tilini o'qitishda qanday maqsadlarga erishish mumkinligini pedagogik-psixologik omillari ko'rib chiqilgan.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o'qituvchilardan interfaol usullar orqali dars mashg'ulotlar olib boruvchi seminar-treneglar guruhini tayyorlash;

-o'quv xonasida interfaol usullar orqali dars mashg'uloti uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;

-sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;

-xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;

-davomatni va intizomni saqlash;

- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda dars mashg'ulotidan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

-interfaol usullar orqali dars mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol usullar orqali dars mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

- dars mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali interfaol metodlarni qo'llash;

-talabalarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol usullar orqali dars mashg'ulotlarni o'tkazish;

-interfaol usullar orqali dars mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni to'liq o'zlashtimasligi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, dialektga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

-o'zini tutishi va pedagogik talabdagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;

-ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi yetishmasligi;

-tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

-talabaga xayrixohlik, samimiylilik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog'liqlik va izchillikka riosa qilmaslik va boshqalar.

Talabalarga tegishli omillar:

-davomat pastligi, dars mashg'ulotiga kechikib kelishi;

-zarur tayyorgarliksiz kelishi;

-ilmiy atamalarni bilmasligi;

-diqqatni jamlay olmasligi;

-eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;

-qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;

-dars mashg'uloti mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;

-manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Dars mashg'ulotda foydalanimadigan vositalarga tegishli omillar:

-ta'lif vositalarining yetishmasligi, ta'mortalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-dars mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;

-vositalardan foydalinishda xavfsizlik qoidalariga riosa qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullar orqali dars mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu dars mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlariidan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi. T.: "O'zMU xabarları, 1/2/1. 2022.95-96 b.

2. Fayzullayev S.I. Tibbiyotda o'zbek va ingliz tillarida nutqiy kompetentsiyasini integratsion o'qitish mexanizmi, "SCIENTIFIC ACADEMY" Ilmiy tadqiqotlar markazi "Ta'lif sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi "Ta'lif sohasidagi xizmatlari uchun" xalqaro ko'rik tanloving materiallari to'plami

28-fevral, 1-QISM O'ZBEKISTON -2023. 391b.